O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha
prorektor N.Abdullayev
"25" 12 ______ 2024-yil.

61010500– "Gid hamrohligi va tarjimashunoslik faoliyati" (yapon tili bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun mutaxassislik fanlaridan

# YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI DASTURI

Toshkent- 2024

CamScanner yordamida skanerlangan

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 13 dekabrdagi "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestasiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 836-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestasiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi NIZOMga asosan ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar: M.Taylanova – PhD., katta o'qituvchi
M.Nadjimxodjayev – Yaponshunoslik oliy maktabi o'qituvchisi

Taqrizchilar: X.Hamidov – DSc, Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi professori
M.Vohidova – PhD, dotsent

Dastur Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi 5-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.





CamScanner yordamida skanerlangan

# KIRISH

Mazkur dastur 61010500 – "Gid hamrohligi va tarjimashunoslik faoliyati" (sharq tillari) yo'nalishi bitiruvchilarining to'rt yil mobaynida ixtisoslik fanlarini o'qib o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun o'tkaziladigan Yakuniy Davlat Attestatsiyasi sinovlari bo'yicha ishlab chiqilgan.
2024/2025-o'quv yili bitiruvchilarida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 25-avgustda 744-son bilan tasdiqlangan o'quv rejasidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o'tkaziladi.
Umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi quyidagi tur topshiriqlarni o'z ichiga oladi:

I. Mutaxassislik fanlaridan sinov – 25 ball;
II. Mutaxassislik fanlaridan ijodiy yozma ish – 25
III. Sharq tilidan ona tiliga tarjima – 25 ball;
IV. Ona tilidan sharq tiliga tarjima – 25 ball.

100 ballik baholash mezonlari dastur nihoyasida keltiriladi.

## I. MUTAXASSISLIK FANLARI

Mutaxassislik fanlaridan attestatsiya yozma sinovlari "Turizm asoslari", "Tili o'rganilayotgan mamlakat madaniy va tarixiy obidalari", "O'zbekistondagi madaniy obidalar", "Turistik distinatsiyalar geoegrafiyasi", "Xizmat ko'rsatish va mehmonxona boshqaruvi asoslari", "Ziyorat turizmi", "Ekskursiya ishlarini tashkil etish", "Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyatini tashkil etish" fanlaridan savollarni qamrab olgan. Ushbu qism bo'yicha quyidagi savollar tavsiya qilinadi:

1. O'zbekistonda geografik kashfiyotlar va topilmalari kartografik metodlarini yoritib bering.
2. O'zbekistonda turizm rivojlanish bo'yicha normativ hujjatlarni yoritib bering.
3. Turizm va sayohat borasidagi ilk bilimlar xususiyatlar va ularning jahon turizm bilimlariga qo'shgan hissalarini asoslang.
4. Turizm asoslari fanining maqsad va vazifalarini muhim jihatlarini belgilab bering.
5. Turizm asoslari fanining iqtisodiyot va mintaqaviy davlatlar misolida bog'liqligini tushuntirib bering.
6. O'zbekiston turizm siyosatini istiqbolli rivojlanishida eng ahamiyatli davlat misolini keltirib o'ting va tahlil qiling.
7. Turizm tushunchasi va uning maqsad va vazifalarini izohlab bering.
8. Turizmning shaxs va jamiyatdagi ahamiyatini iqtisodiy jihmatdan ta'riflab bering.
9. Turizmning klassifikatsiyalarini yoritib bering.
10. Turizm tushunchasiga O'zbekistonning turizm qonuni orqali ta'rif bering.
11. Turizmni kishilar jamiyat hayotidagi roli qanday.
12. Turistik tizim tushunchasi, turistik tizimning tarkiblarini ta'riflab bering.





CamScanner yordamida skanerlangan

13. Turistik tizimning ijtimoiy, iqtisodiy, hududiy quyi tizimlarining ahamiyatlari nimalardan iborat?
14. Turistik destinatsiyalar, klasterlar, maxsus iqtisodiy zonalarning turizm rivojlanishidagi roli?
15. Turizmning iqtisodiy mohiyati va mazmuni nimalardan iborat?
16. Turizmning eksport va import ko'rsatkichlarining roli?
17. Turizm rivojlanishining mamlakat ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishidagi roli nimalardan iborat?
18. Turizm bozorining mohiyati, mazmuni va vazifalari nimalardan iborat?
19. Turizm bozorining tarkibi va segmentlash turlarini izohlab bering?
20. Segmentlash turlari. Turizm bozoriga ta'sir etuvchi asosiy omillarni sanab izohlab bering.
21. Turizm industriyasining mohiyati va tarkiblarini sanab bering va izohlang?
22. Mexmondorchilik industriyasi nimalardan iborat?
23. Turizmda tadbirkorlik turlari sanab bering va ta'riflab bering?
24. Turizm inrfratuzilmasining mohiyati nimalardan iborat va O'zbekiston uchun turistik rivojlangan davlatlar misoli qanday?
25. Turizm rivojlanishida infratuzilmaning roli nimalardan iborat?
26. Mamlakatlarda (hohlagan davlat nazarda tutilmoqda) turistik ob'ektlar va komplekslar sanab bering va ta'riflang?
27. Turizm infratuzilmasi rivojlanishining muammolari va istiqbollari nimalardan iborat, uni mamlakat iqtisodiyotida roli qanday?
28. Turizm bozorida turoperator va turagentning rolini izohlang?
29. Turagentlar va turoperatorlarning mohiyati va turistik rivojlanishda ularning o'rniga baho bering?
30. Turoperatorning xorijiy vakili maqomi va mamlakat rivojlanishdagi roli qanday?
31. Reklama tushunchasi va uning turizmni rivojlantirishdagi roli nimalardan iborat?
32. Turistik xizmatlarning mohiyati, ularning tasniflanishi tushuntirib bering?
33. Turistik xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib bering. Fikringizcha yana qanday xizmatlarni rivojlanitirishga qo'shishi mumkin deb hisoblaysiz?
34. Turistik tashkilotlarning asosiy vazifalarini nimalardan iboratligini ta'riflab bering?
35. O'zbekistonda qanday turistik tashkilotlar mavjud va ularning faoliyatlariga iqtisodiy baho bering?
36. Turistik mahsulot tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati nimalardan iboratligini izohlang?
37. Turistik mahsulotlar turlari va ularning tarkibiy qismlari sanab o'ting?
38. Turistik mahsulotlarning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang?
39. Turistik mahsulot va turistik xizmatlarning farqli jihatlarini izohlang?
40. Turistik mahsulotlarning turizm rivojlanishidagi o'rniga baho bering?
41. Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari.
42. Davlatning turizm va turizmni rivojlanish siyosatiga ta'siri.
43. Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini



16. Hamidov Xayrulla, Ergasheva Sadoqat. Tarjima tarixi. (o'quv qo'llanma). - Toshkent, 2017.-180 b.
17. Xalmurzayeva N. Yapon tili-4. -T., 2013. (darslik)
18. Matchanov E., Gulyamov I. Yapon tili -1. -T., 2013. (o'quv qo'llanma)
19. Sugano R., Xalmurzayeva N. Yapon tili -2. -T., 2013. (o'quv qo'llanma)
20. Sugano R. Yapon tili -3. -T., 2013. (darslik)

**2.Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
4. Мирзиёев Ш. Уверенно продолжим путь национального развития на новом этапе. – Т.: "Ўзбекистон", 2020. - 368 с.
5. Mirziyoyev Sh. Yangi Uzbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T. : "O'qituvchi", 2021. - 184 b.
6. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2021. - 464 b.
7. Tourism, hospitality and events textbooks. New and Key titles.UK. 2015
8. Ochilov E., N.Xodjayeva. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDSHU, 2021.
9. 松岡弘級を教える人のための日本語文法ハンドブック、スリ—エ—ネットワーク, 2003. (darslik)
10. 友松悦子、宮本淳、和栗雅子、「どんなとき、どう使う日本語表現文型 200」"アルク"2000 年

**3.Axborot manbalari**

1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumati portali
2. www.uza.uz - O'zbekiston Axborot agentligi veb sayti
3. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
4. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi sayti
5. https://president.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati sayti
6. https://mineconomy.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi sayti
7. https://www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti
8. www.worldbank.org – Jahon bankining sayti
9. www.unctad.org - Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot Konferentsiyasi sayti
10. www.wto.org – Butunjahon savdo tashkiloti sayti



CamScanner yordamida skanerlangan

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 4,45 — 4,41 | 89 | 3,75 — 3,71 | 75 | 3,05 — 3,01 | 61 |
| 4,40 — 4,36 | 88 | 3,70 — 3,66 | 74 | 3,00 | 60 |
| 4,35 — 4,31 | 87 | 3,65 — 3,61 | 73 | **3,0 dan kam** | **60 dan kam** |

**ESLATMA:** Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egadirlar. Talaba tomonidan berilgan appelyatsiya Appelyatsiya komissiyasi tomonidan 1 kun ichida ko 'rib chiqila hamda DAK raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.

## Adabiyotlar ro'yxati

### 1.Asosiy adabiyotlar

1. Tuxliev N., Jiyanov O'. Turizmning rivojlanish milliy modellari: darslik. – T., 2020. – 264 b.
2. M.T.Mirzayev, M.T.Aliyeva. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma. -T., 2011.
3. I.S.Tuxliyev,R.Hayitboyev,B.SH.Safarov,G.R.Tursunova.Turizm asoslari.Darslik.- T., 2014.
4. Е.Л.Писаревский. Основы туризма.-Москва, 2014.
5. В.И.Кружалин, Н.С.Мироненко, Н.В.Гигерн-Корн, Н.В.Шабалина. География туризма.-М.2014.
6. A.Lew, C.Hall, D. Timothy. World geography of travel and tourism.Canada.2008.
7. S.K.Tashtayeva. Turizm iqtisodi va geografiyasi. Oquv qollanma.-T., 2023. 167 b.
8. С.А.Севастьянова. Региональное планирование развития туризма и гостиничного хозяйства.Учеб.пособие. М.КНОРУС. 2015.-256с.
9. Dr Mark Anthony Camilleri. Travel Marketing, Tourism Economics and the Airline Product An Introduction to Theory and Practice. Springer; 1st ed. 2018.- 237 p.
10. Маркетинг туризма : учебное пособие / И.В. Гончарова, Т.П. Розанова, М.А. Морозов, Н.С. Морозова. — М. : Федеральное агентство по туризму, 2014. — 224 с.
11. International tourism in d-8member states: status and prospects. SESRIC.Turkey.2018.-54p.
12. Ю. Воскресенский. Международний туризм.М. 2005.С.232
13. Wohlmuther, W.Wintersteiner. International handbook on tourism and peace.WTO.Austria.2014.388-p.
14. А. Ю. Александрова. Международный туризм. Москва 2002.
15. Salomov G'.Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2015.



takomillashtirish.

44. Turistik resurslarning ijtimoiy iqtisodiy mazmuni va mohiyati.
45. Turistik resurslarning turlari va ularning tasnifi.
46. Milliy iqisodiyotni rivojlantirishda turistik resurslarnig roli
47. Turizmning iqtisodiy ahamiyatini yoriti bering.
48. Muzeylarning qanday tasnifini bilasiz? Misollar keltiring..
49. "Ekskursiya" tushunchasining mohiyati. Ekskursiya faoliyat turi va muloqot shakli sifatida.
50. Ekskursiya obektlarining mazmuni bo'yicha tasnifi.
51. "Rekreatsion geografiya" va "turizm geografiyasi" atamalari qanday bog'lanadi?
52. Ekskursiyalar davomiyligi bo'yicha qanday farqlanadi?
53. Hududning turistik va rekreatsion salohiyati qanday hisoblab chiqiladi?
54. Turizm resurslari reestri nima?
55. "Barqaror turizm" atamasiga izoh bering, turizmdagi barqarorlik tamoyillarini keltiring.
56. Turistik hudud atamasi nimani anglatadi? Turistik maqsadlar uchun hudud tanlashda qanday mezonlar mavjud?
57. Mavsumiylik omilining dam olishga qanday ta'sir qilishini baholang. Yuqori, o'rta va past turistik mavsumlar deganda nima tushuniladi?
58. Tarjimaning ba'zi grammatik masalalari.
59. Ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimasining o'ziga xosliklari.
60. Yaqin va uzoq tillardan tarjima muammolari.
61. Tarjimaning lisoniy va g'ayrilisoniy muammolari.
62. Tarjimaning tur va xillari.
63. Tarjimada jins kategoriyasi.
64. "Tarjimon kompetensiyasi"ga qo'yiladigan talablar
65. Tarjimada milliy va tarixiy kolorit tushunchasi va nazariy asoslari.
66. Tarjimashunoslikda xos so'z (realiya)larning tadqiqi.
67. Realiya va ularning tasnifi.
68. Muqobilsiz leksika va uni tarjimada berish yo'llari.
69. Tarjimoning professional etikasi.
70. Tarjimashunoslikda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati, yutuq va kamchiliklari.
71.

## II. MUTAXASSISLIK FANLARIDAN IJODIY YOZMA ISH

Mutaxassislik fanlaridan attestatsiya yozma sinovlari "Turizm asoslari", "Mamlakatshunoslik (o'rganilayotgan mamlakat geografiyasi, tarixi, madaniyati va davlat tuzumi)", "O'zbekistondagi madaniy obidalar", "Tili o'rganilayotgan mamlakat madaniy va tarixiy obidalari" fanlaridan savollarni qamrab olgan. Ushbu qism bo'yicha quyidagi savollar tavsiya qilinadi:

1. "Registon maydoni – Temuriylar me'morligi yodgorligi" mavzusida insho yozing (kamida 200 ta so'z).



CamScanner yordamida skanerlangan

2. "Ulug'bek rasadxonasi – yulduzlar ilmi maskani" mavzusida insho yozing (kamida 200 ta so'z).

3. "Yaponiya tarixiy poytaxti – Kioto" mavzusida insho yozing (kamida 200 ta so'z).

4. "Shohizinda me'moriy majmuasi – o'tmishga sayohat" mavzusida insho yozing (kamida 200 ta so'z).

5. "Yaponiyaning diqqatga sazovor turistik ob'yektlari" mavzusida insho yozing (kamida 200 ta so'z).

6. "O'zbekistonning madaniy ob'yektlari" mavzusida insho yozing (kamida 200 ta so'z).

7. "Yaponiya tarixiy joylariga sayohat" mavzusida insho yozing (kamida 200 ta so'z).

8. "Go'ri Amir – temuriylar sag'anasi" mavzusida insho yozing (kamida 200 ta so'z).

9. "Yaponiya milliy bayramlari turistlarni jalb qiluvchi omil sifatida" mavzusida insho yozing (kamida 200 ta so'z).

10. "Yaponiyaning zamonaviy inshoatlari" mavzusida insho yozing (kamida 200 ta so'z).

11. "Yaponiyaning gastronomik turizmi" mavzusida insho yozing (kamida 200 ta so'z).

12. "Yaponiyaning turistik salohiyati" mavzusida insho yozing (kamida 200 ta so'z).

13. "Yaponiyaning mashhur muzeylari" mavzusida insho yozing (kamida 200 ta so'z).

## III. SHARQ TILIDAN ONA TILIGA TARJIMA (800-100 b)

### 1. 異文化理解と言語学習

現代社会において、異文化理解はますます重要になっています。異なる文化を理解するためには、その国の言語を学ぶことが有効な方法の一つです。言語は単なるコミュニケーションの手段ではなく、その国の歴史や価値観、考え方を反映しています。

例えば、日本語には「いただきます」や「お疲れ様です」といった独特の表現があります。これらの言葉には、日本人の礼儀や相手を思いやる気



| | |
|---|---|
| a) matnni to'liq 100% tarjima qilsa | **25 ball** |
| b) 90 % tarjima qilsa | **22.5 ball** |
| v) 80% tarjima qilsa | **20 ball** |
| g) 70% tarjima qilsa | **17.5 ball** |
| d) 60% tarjima qilsa | **15 ball** |
| e) 50% tarjima qilsa | **12.5 ball** |
| j) 50% dan kam tarjima qilsa | **0 ball** |

Tarjima hajmidan kelib chiqib, baholashda oraliq ballar korsatkichlari ham qollanishi mumkin.

Yozma ish natijalari bo'yicha sinov yakunida yig'ilgan ballar jamlanadi va quyidagicha baholanadi:

1. 90 - 100 ballgacha – "a'lo";
2. 70 - 89 ballgacha – "yaxshi";
3. 60 – 69 ballgacha – "qoniqarli";
4. 0 – 59 ballgacha – "qoniqarsiz"

**100 ballik va 5 ballik baholash tizimlarining o'zaro mosligi jadvali**

| 5 baholik shkala | 100 ballik shkala | 5 baholik shkala | 100 ballik shkala | 5 baholik shkala | 100 ballik shkala |
|---|---|---|---|---|---|
| 5,00 — 4,96 | 100 | 4,30 — 4,26 | 86 | 3,60 — 3,56 | 72 |
| 4,95 — 4,91 | 99 | 4,25 — 4,21 | 85 | 3,55 — 3,51 | 71 |
| 4,90 — 4,86 | 98 | 4,20 — 4,16 | 84 | 3,50 — 3,46 | 70 |
| 4,85 — 4,81 | 97 | 4,15 — 4,11 | 83 | 3,45 — 3,41 | 69 |
| 4,80 — 4,76 | 96 | 4,10 — 4,06 | 82 | 3,40 — 3,36 | 68 |
| 4,75 — 4,71 | 95 | 4,05 — 4,01 | 81 | 3,35 — 3,31 | 67 |
| 4,70 — 4,66 | 94 | 4,00 — 3,96 | 80 | 3,30 — 3,26 | 66 |
| 4,65 — 4,61 | 93 | 3,95 — 3,91 | 79 | 3,25 — 3,21 | 65 |
| 4,60 — 4,56 | 92 | 3,90 — 3,86 | 78 | 3,20 — 3,16 | 64 |
| 4,55 — 4,51 | 91 | 3,85 — 3,81 | 77 | 3,15 — 3,11 | 63 |
| 4,50 — 4,46 | 90 | 3,80 — 3,76 | 76 | 3,10 — 3,06 | 62 |



CamScanner yordamida skanerlangan

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarini baholash uchun maksimal baho - **100 ball** etib belgilanadi.

Mutaxassislik fanlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi biletlarining har birida 4 tadan savol bo'lib, ular quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

**1.** Birinchi va ikkinchi savollar mutaxassislik fanlariga tegishli bo'ladi. Ularning har biriga yozilgan javoblarni baholash **25 ball** doirasida amalga oshiriladi. Savol bo'yicha javoblarni baholash quyidagi jihatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

– nazariy va amaliy bog'liqlikda yoritilgan;
– mazmunni yoritishda mustaqil ilmiy mushohada yuritish iqtidori mavjudligi;
– nom va ilmiy atamalarni bilish darajasi;
– keltirilgan faktlarning hozirgi davrdagi jarayonlar, o'zgarishlar bilan o'zaro aloqadorlikda ochib berilganligi, chuqur ilmiy tahlil etilgan hamda xronologik jihatdan to'g'ri yoritilganligi;
– muammoni tizimli mustaqil tahlil qilganligi, o'z fikrini erkin va mustaqil ifoda eta olganligi.

**BAHOLASH SHKALASI:**

1. Fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to'liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan va har tomonlama chuqur asoslangan javoblarga **22.5-25 ballgacha** - ***a'lo*** baho qo'yiladi.
2. Savolga nisbatan to'liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e'tibor berilgan bo'lsa, **17.5-22.4 ballgacha** - ***yaxshi*** baho qo'yiladi.
3. Savolga qisman javob bera olgan va ma'lum darajada ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan bo'lsa, **15-17.4 ballgacha** - ***qoniqarli*** baho qo'yiladi.
4. Fikr aniq ifoda etilmagan, savolga qisman bo'lsada to'g'ri javob berilmagan, tegishli ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanilmagan javoblar uchun **0-14.9 ballgacha** - ***qoniqarsiz*** baho qo'yiladi.

**2.** Uchinchi savol bo'yicha mutaxassislikka oid (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, badiiy) mavzulardagi va 150-200 ta so'z atrofidagi hajmga ega sharq tilidagi matnni ona tiliga tarjima qilinadi.

**3.** To'rtinchi savol bo'yicha mutaxassislikka oid (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, badiiy) mavzulardagi va 150-200 ta so'z atrofidagi hajmga ega ona tilidagi matnni sharq tiliga tarjima qilinadi.

Yozma tarjimani baholashda **25 ballik mezon qo'llanadi.** Matn tarjimasi quyidagi mezon asosida baholanadi:

**BAHOLASH SHKALASI:**



持ちが込められています。そのため、日本語を学ぶことは、日本文化を深く理解する手助けとなります。

また、言語を学ぶことで、異なる価値観を受け入れる柔軟性が身につきます。異文化を理解することは、国際社会での交流を円滑にし、より良い人間関係を築くための重要なステップです。そのため、外国語学習は単なるスキル習得ではなく、自分自身の視野を広げる貴重な経験となるのです。

## 2. 観光ガイドの役割

観光ガイドは、旅行者に観光地の魅力を伝える重要な役割を担っています。ガイドの仕事は、単に観光地を案内するだけでなく、その土地の歴史や文化を分かりやすく説明し、旅行者の体験をより豊かなものにすることです。

例えば、日本の伝統的な寺院や神社を訪れる際、建築様式や宗教的な意味を知らなければ、その魅力を十分に感じることはできません。そこで、ガイドが詳しく説明することで、旅行者はより深く日本の文化を理解することができます。

また、観光ガイドは言語の橋渡しをする役割も果たします。外国人観光客が増えている現代では、ガイドが英語やその他の言語を話せることが重要です。さらに、地元の習慣やマナーを旅行者に伝えることで、文化的な誤解を防ぐこともできます。

## 3. 持続可能な観光

近年、持続可能な観光（サステナブル・ツーリズム）が注目されています。これは、観光地の自然環境や文化を守りながら、観光を楽しむ方法で



CamScanner yordamida skanerlangan

す。観光が盛んな地域では、大量の観光客が訪れることで環境破壊や文化の変化が問題になることがあります。

例えば、日本の京都では、多くの観光客が訪れることで地元の住民の生活に影響を与える「オーバーツーリズム」が問題になっています。そのため、観光地ではルールを設け、環境を守るための努力が求められています。

持続可能な観光を実現するためには、観光客一人ひとりが環境に配慮し、地元の文化を尊重することが大切です。例えば、ごみを持ち帰る、伝統的なルールを守る、地域の人々と協力するなどの行動が求められます。

観光は経済的な利益をもたらしますが、それだけでなく、その土地の自然や文化を次世代に伝える責任もあります。そのため、観光業に関わる人々は、持続可能な観光のあり方を考えることが必要なのです。

## IV. ONA TILIDAN SHARQ TILIGA TARJIMA (800-1000 b)

### Turizmning ahamiyati va rivojlanishi

Turizm bugungi kunda dunyoning eng rivojlangan sohalaridan biri hisoblanadi. U nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga katta foyda keltiradi, balki madaniy almashinuv va xalqaro do'stlikni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Turizm orqali sayohatchilar yangi joylarni kashf etib, o'zlari uchun notanish bo'lgan madaniyat va an'analar bilan tanishadilar.

Har bir mamlakat o'zining noyob diqqatga sazovor joylari, tabiiy manzaralari va milliy taomlari bilan sayyohlarni jalb qilishga harakat qiladi. Masalan, O'zbekiston boy tarixiy merosi va me'moriy yodgorliklari bilan mashhur bo'lib, har yili minglab xorijiy mehmonlarni qabul qiladi.

Biroq turizm sohasi faqatgina sayyohlik maskanlarini targ'ib qilish bilan cheklanmaydi. Mehmonxona, transport, restoran va ekskursiya xizmatlari ham ushbu sohaning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bois, turizmni rivojlantirish uchun zamonaviy infratuzilma yaratish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va ekologik muhitni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm nafaqat iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi, balki xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.



### Yaponiyada turizmning rivojlanishi

Yaponiya dunyodagi eng mashhur sayyohlik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Har yili millionlab sayyohlar Yaponiyaga tashrif buyurib, uning tarixiy yodgorliklari, zamonaviy shahar manzaralari va tabiiy go'zalligidan bahramand bo'ladilar.

Tokio va Osaka kabi yirik shaharlarda zamonaviy texnologiyalar va an'anaviy madaniyat uyg'unlashgan. Masalan, Tokio shahri sayyohlarni osmono'par binolar, yirik savdo markazlari va mashhur restoranlari bilan o'ziga jalb qiladi. Kyoto esa o'zining qadimiy ibodatxonalari, chiroyli bog'lari va an'anaviy choy marosimlari bilan mashhur.

Bundan tashqari, Yaponiyaning tabiati ham sayyohlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Fuji tog'i, onsen (issiq buloqlar) va sakura gullash mavsumi mamlakatning eng diqqatga sazovor tabiiy mo'jizalaridandir. Har yili minglab odamlar sakura festivalida ishtirok etish uchun Yaponiyaga kelishadi.

Yaponiyada turizm infratuzilmasi yaxshi rivojlangan. Mehmonxonalar, tezkor poyezdlar (Shinkansen) va yuqori sifatli xizmat ko'rsatish tizimi sayyohlarning safarini yanada qulay qiladi. Shu sababli, Yaponiya dunyodagi eng qulay va xavfsiz sayyohlik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

### O'zbekiston davlat gerbi

Davlat gerbi O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 2 iyuldagi 616-XII-sonli "O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida"gi qonuni bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi quyidagi ko'rinishga ega: tog'lar, daryolar va so'l tomoni bug'doy boshoqlaridan, o'ng tomoni esa chanoqlari ochilgan g'o'za shoxlaridan iborat chambarga o'ralgan gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi. Gerbning yuqori qismida Respublika hurligining ramzi sifatida sakkizburchak tasvirlangan bo'lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasvirlangan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi — qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chambar lentasining bantida «O'zbekiston» deb yozib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli ko'rinishida: Humo qushi va daryolar — kumush rangida; quyosh, boshoqlar, paxta chanoqlari va «O'zbekiston» yozuvi — oltin rangida; g'o'za shoxlari va barglari, tog'lar va vodiy — yashil rangda; chanoqlardagi paxta — oq rangda; lenta — O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining ranglarini aks ettiruvchi uch xil rangda; sakkizburchak — oltin zarhal bilan hoshiyalangan holda havo rangda; yarim oy va yulduzlar — oq rangida tasvirlangan.

### Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining mutaxassislik fanlaridan yozma ishlar topshiriqlari bo'yicha talabalar bilimini baholash mezonlari



CamScanner yordamida skanerlangan